

JADIDCHILIK HARAKATINING TURKISTON IJTIMOIY-SIYOSIY VA MADANIY HAYOTIGA TA'SIRI

Axmedova Marg`uba

Andijon pedagogika kolleji direktori Tarix fani o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Taraqqiyparvarlar islom dini har bir musulmon erkak va ayollarning bilimga ega bo`lishini ularning zimmasiga burch qilib qo`yganligini keng targ`ib qilganligi, jadidchilikni paydo bo`lishi, unga qarshi kurashish, Turkiston ijtimoiy -siyosiy va madaniy hayotiga ta`siri haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: jadidchilik, Turkiston, ta`sir, burch, ahamiyat, harakat, rivojlantirish, boyitish, kurashish.

Jadidchilik yoki jadidizm (arabcha: جدید — yangi) — XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakatdir.[1] Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O'rta Osiyoda tarqaldi.

Jadidchilik avvaliga madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilar panturkizm g'oyalarini targ`ib qilishgan.[2]

Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka „burjua-liberal, millatchilik harakati“ deb ta'rif berilgan.[3] Bu davrda asosan tanqid qilingan jadidchilik namoyandalari nomi SSRI parchalanib ketganidan keyin qayta tiklandi. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy rahbarligida qrimtatarlar o'rtasida vujudga keldi.

Jadidchilik harakati namoyandalari ko'pincha o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyoilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag'lubiyatga uchrash davrlari bo'lib, ularni shartli ravishda to'rtga bo'lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895-1905; 1906-1916; 1917-1920; 1921—1929-yillarni o'z ichiga oladi.

Bu davrda jadidlar ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida ko'rindilar. Xalq ularda o'z himoyachilarini his etdi. Sirdaryo viloyatidan Peterburgda o'tadigan Davlat dumasiga a'zolikka saylangan Abduvohidqori Abduraufqoriyevga Toshkent, Chimkent va boshqa joylarning aholisidan 12 moddadidan iborat talabnomani Davlat dumasiga topshirish yuklandi. Bu hujjatda ko'pgina ijtimoiy talablar ko'rsatilgan edi. Abduvohidqori 1907-yil 20-fevral-3-iyunda

Peterburgda Sadri Maqsudiy, Muso Jorilloh, Alimardon To'pchiboshev kabi musulmon ziyorilari bilan tanishib, musulmon fraksiyasining raisi Biglovga Turkiston xalqi dardini yetkazdi. Biroq Abduvohidqori, oradan ko'p o'tmay, qamoqqa olindi va Tulaga surgun qilindi.

Shu tarzda, jadidchilik harakati 1906—1916-yillarda o'zining asosiy yo'lini belgilab oldi. Jadidlarning nashrlari xalqni yangi davr boshlangani bilan tanishtirar ekan, o'zligini anglab, uyushishga chakirdi. O'lka moddiy va ma'naviy boyliklari talanayotganini oshkor qildi. Cho'lpion she'r va maqolalarida mustamlakachilarning asl qiyofalarini ochib tashladi. Mashhur advokat Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev oliy o'quv yurtini tashkil etish, soliqlarni tartibga solish, bolalar tarbiyasiga jiddiy e'tibor berish masalasini bayon qildi. Lev Tolstoy bilan fikrlashish chog'ida mashhur yozuvchini yon berishga majbur etgan Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev chor hukumati ma'murlarining poraxo'rligi va zolimligini fosh etib, ayrimlarini davlat ishidan chetlatishga erishdi. Musulmon aholisiga amaliy tarzda yordam berib, mavjud hokimiyat qonun-qoidalarini tushuntira bordi.

XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida Turkistonda chor mustamlakachiligining kuchayishi natijasida Markaziy Osiyoning ko'p joylarida jadidchilik harakati kuchayib ketdi. Bu harakat mavjud jamiyatning ijtimoiy-madaniy asoslarini qayta qurishga qaratilgani sababli eski tuzum, eski turmush, eski maktab tarafdorlarining kuchli qarshiligidagi duch keldi. Bu qarshi kuch vakillari qadim yo qadimchilar deb atalgan bo'lsa, yangi hayot shabadalarini olib kelishga uringan kishilar esa jadid yoki jadidchilar degan nom oldilar. Shu tarzda asrimiz boshlarida jadidlar va jadidchilik harakati yuzaga keldi. Yangi asrning boshlanishi bilan avvalgidek ijtimoiy xorlik, iqtisodiy va madaniy qoloqlik sharoitida yashash mumkin emasligi ular uchun oydek ravshan edi. Nafaqat Markaziy Osiyo, balki Rossiyada yashovchi xalqlar ham o'z taqdirlarini o'zgartiribgina, feodal tuzumning negizlarini parchalabgina yangi hayotga qadam qo'yishlari mumkin edi. Oq podsho idora qilgan mamlakatdagi ana shu og'ir vaziyat tufayli 1905 yil to'ntarishi sodir bo'ldi. Bu to'ntarishdan maqsad jamiyatni demokratlashtirish, sakkiz saatlik ish kunini joriy etish, dvoryanlar ixtiyoridagi katta yer-mulkni olib, dehqonlarga bo'lib berish va hokazolar edi. Birinchi rus to'ntarishining bu dasturi bilan tanishgan Markaziy Osiyolik taraqqiyatparvar ziyorilar tatar qardoshlari ortidan borib, jadidchilik harakatiga kelib qo'shildilar. 1907 yil Eron burjua to'ntarishi, 1908 yil Turkiya burjua to'ntarishi, Markaziy Osiyoda jadidchilik harakatining rasmiylashuvi va kuchga kirishida katta ahamiyat kasb etdi. Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy islohotlar yo'li bilan xalq va jamiyat hayotini yaxshilashga, madaniy yuksaklikka olib chiqishga qaratilgan dasturni bajarishga kirishdilar. Ular ta'sirida o'zbek zaminining boshqa go'shalarida ham jadidchilik harakati avj oldi.

Turkistonda jadidchilik harakati. Yangi usul mакtablarining ochilishi. Chor hukumati Turkistonni iqtisodiy va siyosiy jihatdangina emas, madaniyma'naviy qoloqlik va qaramlik holatida ushlab turishdan ham manfaatdor edi. Ana shu niyatda o'lkamiz xalqlari o'rtasida jaxolat, xurofot

va bid'atni zo'r berib avj oldirdi, ma'naviy-siyosiy manqurtlikni ko'llab-quvvatladi, Bosqinchilar Turkiston xalqining ma'rifat yo'lliga kirib, o'z xaq-huquqlarini tanishi, milliy ongi o'sishiga tish-tirnog'i bilan qarshilik qildi. Ma'rifatparvarlar xalqimizning donishmand farzandlari sifatida mustamlakachilik davrida Turkistonda hukmron bo'lgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatni, xalqning ma'naviy holati darajasini yaxshi bilganlar. Mustaqillikka erishish uchun xalqning umumiyligi madaniy saviyasini davr talablari va imkoniyatlari darajasida rivojlantirish, xalqni yangi madaniyat, ma'rifatga chorlash zarurligini chuqur anglab etganlar. Xalqni Evropa mamlakatlari madaniyati, fan-texnika yutuqlari, ilg'or tajribalari bilan tanishishga tinimsiz ravishda da'vat etganlar. Bilimli, madaniyatli, ma'naviyatli millat va xalq juda katta ijtimoiy kuchga aylanishini ma'rifatparvarlar birinchilardan bo'lib tushunib etganlar. «Asta-sekin ma'rifatchilikdan jadidchilik o'sib chiqdi va u ma'lum darajada siyosiy masalalarni olg'a sura boshladi. Yangi talim-tarbiya, yangi mакtab, yangi maorif, uni boshqarish, madaniy targ'ibot, tashkilotchilik, masalalari asosiy o'ringa ko'tarildi. Yangiliklarga asoslangan holda rus va eski maorifdan farq qiluvchi fikrg'oyalar oldinga surildi, ular mahalliy matbuot, turli kitoblar orqali keng targ'ib qilindi.

Turkiston taraqqiyparvarlari tomonidan birinchi navbatda amalga oshirilgan chora-tadbirlar qatorida islam dini me'yorlarini, Qur'on oyatlari va hadislarni, shariat hukmlarini to'g'ri talqin etish, ta'lim tizimini isloh qilish, uni zamon talablariga moslashtirish kabilalar bor edi. Milliy taraqqiyparvarlar musulmon ruhoniylarining fanga nisbatan salbiy munosabatda bo'lган vakillarini qoraladilar. Taraqqiyparvarlar islam dini har bir musulmon erkak va ayollarning bilimga ega bo'lishini ularning zimmasiga burch qilib qo'yanligini keng targ'ib qildilar.

Jadidlar ilm-fanni taraqqiyotning va farovonlikning asosiy yo'naltiruvchi kuchi hamda jaholatga qarshi kurashning birdan bir vositasi deb hisobladilar.

Jadidlarning islamga oid g'oyalari ularni islamning asosiy ta'limotini o'zgartirishga intilganlar, degan xulosaga olib kelmasligi kerak. Sababi ular o'z faoliyatlarida Qur'oni ham, umuman, butun islam ta'limotini ham to'g'ri izohlab berganlar.

Jadidlar o'lkani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida ham o'ziga xos qarashlarga ega edi. Taraqqiyparvarlar o'z faoliyatları davomida o'lka xalqlarining ijtimoiy hayoti, turmush tarzi, kasbkori, shart-sharoitlaridan xabardor bo'lganlar.

Jadidlar ko'plab yoshlarni rivojlangan xorijiy davlatlarga, jumladan, Germaniyaga o'qishga yuborish, u yerda ular tahsil olib kelib, yurt va millat uchun xizmat qilishi g'oyalarini ilgari surdi.

ADABIYOTLAR:

1. Dildora H., Zafar H. TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATI //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2023. – T. 3. – №. 26. – C. 359-361.

2. Mahbuba Z. CHIKANO VA JADIDCHILIK HARAKATLARI HAMDA USHBU YONALISHDAGI MASHHUR NAMOYONDALAR //Involta Scientific Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 405-415.

3. Zaidovna Y. U. JADIDCHILIK HARAKATI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 1053-1060.